**Аннотация:** В данном исследовании представлен всесторонний анализ текущего состояния инвестиционной деятельности коммерческих банков и ее тенденций. В частности, инвестиционная деятельность банков оценивается как важная составляющая экономики, и раскрывается их роль в стимулировании экономического роста посредством эффективного распределения капитала. В исследовании рассматривается структура инвестиционного портфеля коммерческих банков, объем кредитования, участие на рынке ценных бумаг и показатели долгосрочного финансирования.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, инвестиции, инвестиционная деятельность, банковская система, экономический рост, инвестиционная среда, капиталовложения, финансовые ресурсы, кредитование, банковский капитал, ликвидность, прибыльность.

**Abstract:** This study provides a comprehensive analysis of the current state of investment activity of commercial banks and its trends. In particular, the investment activity of banks is assessed as an important component of the economy, and their role in stimulating economic growth through effective capital allocation is revealed. The study examines the composition of the investment portfolio of commercial banks, lending volume, participation in the securities market, and long-term financing indicators.

**Keywords:** commercial banks, investment, investment activity, investment activity, banking system, economic growth, investment environment, capital investments, financial resources, lending, bank capital, liquidity, profitability.

## KIRISH

Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish masalasi bugungi kunda moliya tizimini barqaror rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Banklar iqtisodiyotning asosiy moliyaviy vositachisi sifatida nafaqat kreditlash, balki investitsion loyihalarni moliyalashtirish, qimmatli qog'ozlar operatsiyalari va kapital bozorida faol ishtirok etish orqali iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, ularning investitsion faoliyatini kengaytirish va samaradorligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Amaldagi holatda tijorat banklarining investitsion portfeli tarkibi, investitsion kreditlar ulushi hamda fond bozoridagi ishtiroki asta-sekin kengayib bormoqda, biroq risklarni boshqarish, resurs bazasining yetarliligi va uzoq muddatli moliyalashtirish mexanizmlarining rivojlanish darajasi hali ham takomillashtirishni talab etadi.

Bank kapitalini doimiy tarzda shakllantirib borish nihoyatda muhimligi 2007-yilda boshlangan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida yana bir bor o'z isbotini topdi. Inqirozga eng ta'sirchan va eng katta yo'qotishlar ham bank tizimida yuz berdi. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar tijorat banklari moliyaviy holati keskin darajada yomonlashib ketdi, ularning kapitalizatsiya hajmi esa qisqarib ketdi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining investitsion faolligi va uning iqtisodiyotdagi o'rni bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ushbu jarayonning ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi. Ватищева G.A. 2009-yilda investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishning asosiy komponentlariga ta'sirini o'rganib, investitsiya hajmi va uning tarkibi makroiqtisodiy o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir

ko'rsatishini asoslaydi. Muallif investitsiya jarayonlarining faollashuvi iqtisodiy tizimda ishlab chiqarish hajmi, bandlik va innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Bikulov G.R. va Edronova V.N. 2008-yilda banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsion strategiyalarini tahlil qilib, tijorat banklari investitsion faoliyatining samaradorligi ularning bozor strategiyasi, risklarni boshqarish darajasi va portfelni diversifikatsiya qilish imkoniyatlariga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Ularning yondashuvida banklar investitsion faolligining oshishi fond bozori infratuzilmasi rivojlanishi bilan uzviy bog'liqligi qayd etiladi.

Budji C. 2000-yilda rivojlanayotgan Yevropa mamlakatlaridagi banklarning investitsiyalarni jalb etishdagi rolini tahlil qilib, tijorat banklari investorlar uchun muhim moliyaviy vositachi sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, bank tizimining barqarorligi va shaffofligi investitsion oqimlarni jalb qilishda hal qiluvchi omil hisoblanadi, bu esa investitsion faollikning joriy holatini baholashda institutsional muhitni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Buzaeva O.A. 2017-yilda tijorat banklarining investitsion faoliyatini boshqarishning asosiy yo'nalishlarini o'rganib, investitsion jarayonlarni samarali tashkil etish uchun strategik rejalashtirish, monitoring va nazorat tizimlarini takomillashtirish zarurligini asoslaydi. U investitsion faoliyatni boshqarishda tizimli yondashuvni qo'llash banklarning moliyaviy natijalarini yaxshilashga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Burkova A.Yu. 2010-yilda investitsion bankchilikning tijorat va chakana bank faoliyatidan farqli jihatlarini tahlil qilib, investitsion operatsiyalarning murakkabligi va yuqori darajadagi risk bilan tavsiflanishini ta'kidlaydi. Bu esa tijorat banklarining investitsion faoliyatini rivojlantirishda maxsus bilim va boshqaruv yondashuvlarini talab etadi.

Giblova N.M. 2012-yilda tijorat banklarini iqtisodiy modernizatsiya jarayonlarining asosiy ishtirokchisi sifatida baholab, ularning investitsion faolligi iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlarini jadallashtirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Muallif banklarning investitsion resurslarni samarali taqsimlashdagi rolini alohida ta'kidlaydi.

Umuman olganda, ko'rib chiqilgan adabiyotlar tijorat banklarining investitsion faolligi iqtisodiy rivojlanishning muhim omili ekanligini ko'rsatadi. Ushbu jarayon banklarning strategik boshqaruvi, fond bozori rivojlanishi, institutsional muhit, risklarni boshqarish va investitsion resurslarni samarali taqsimlash bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning joriy holati va o'zgarish tendensiyalarini tahlil qilish kompleks yondashuvni talab etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari, Markaziy bank statistik ma'lumotlari hamda xalqaro moliyaviy tashkilotlar bazalaridan olingan ko'rsatkichlar asosida ma'lumotlar yig'ildi. Ushbu ma'lumotlar vaqt qatorlari va panel ko'rinishida tahlil qilinib, trend tahlili, korrelyatsion bog'liqlik va ko'p omilli regressiya usullari orqali investitsion faollikdagi o'zgarish tendensiyalari baholandi.

### Tahlil va natijalar

Bank kapitali eng barqaror resurs hisoblanganligi sababli bankning barqarorligini oshiradi, shuning uchun unga qat'iy talablar qo'yiladi, doimiy oshirib borish tavsiya etiladi. Bu borada eng keng qo'llaniladigan hujjat Bazel qo'mitasining bank kapitaliga qo'yilgan talablari hisoblanadi. Qo'mitaning hujjatlari doimiy tarzda takomillashib boradi va bir-birini inkor qilmagan holda to'ldirib boriladi. Xususan, Bazel III talablarida ham kapital yetariligi va tarkibiga nisbatan aniq talablar o'rnatilgan.

Bazel III standartiga binoan banklarning umumiy kapitali tarkibi quyidagicha bo'lishi lozim: I darajali kapital: asosiy I darajali kapital; qo'shimcha I darajali kapital. II darajali kapital. Yuqoridagi har bir kategoriyaga kiritiladigan elementlar Qo'mita ishlab chiqqan xususiyatlarga ega bo'lishi kerak.

Yuqorida keltirilgan kapital talablariga quyidagi minimum talablar qo'llaniladi: asosiy I darajali kapital riskka tortilgan aktivlarning eng kamida 4,5 foizini tashkil etishi; I darajali kapital riskka tortilgan aktivlarning eng kamida 6,0%ini tashkil etishi; umumiy kapital riskka tortilgan aktivlarning eng kamida 8,0 foizini tashkil etishi lozim.

Asosiy I darajali kapital quyidagi tarkibiy qismlarning yig'indisidan tashkil topadi: bank tomonidan chiqarilgan hamda to'liq to'langan oddiy aksiyalar (yoki aksionerlik jamiyatlari bo'lmagan kompaniyalar uchun ularning ekvivalenti); aksiya mukofoti – aksiya chiqarishdan qo'shimcha foyda; taqsimlanmagan foyda; yig'ilgan boshqa jami foyda; bankning konsolidatsiyalashgan sho'ba tashkilotlari chiqargan hamda 3-tomon qo'lida bo'lgan (ya'ni minoritar ulush), shuningdek asosiy I darajali kapital xususiyatiga mos keladigan oddiy aksiyalar; asosiy I darajali kapitalni hisoblashda regulyativ korrekcirovkalar.

Qo'shimcha I darajali kapital quyidagi tarkibiy qismlarning yig'indisidan tashkil topadi: bank tomonidan chiqarilgan, shuningdek qo'shimcha I darajali kapital xususiyatiga mos keladigan instrumentlar; qo'shimcha I darajali kapital xususiyatiga mos keladigan instrumentlarni chiqarishdan qo'shimcha foyda; bankning konsolidallashgan sho'ba tashkilotlari chiqargan hamda 3-tomon qo'lida bo'lgan, shuningdek qo'shimcha I darajali kapital xususiyatiga mos keladigan instrumentlar; qo'shimcha I darajali kapitalni hisoblashda regulyativ korrekcirovkalar.

II darajali kapital quyidagi tarkibiy qismlarning yig'indisidan tashkil topadi: bank tomonidan chiqarilgan, shuningdek qo'shimcha II darajali kapital xususiyatiga mos keladigan instrumentlar; II darajali kapital xususiyatiga mos keladigan instrumentlarni chiqarishdan qo'shimcha foyda; bankning konsolidallashgan sho'ba tashkilotlari chiqargan hamda 3-tomon qo'lida bo'lgan, shuningdek II darajali kapital xususiyatiga mos keladigan instrumentlar; umumiy zahiralari; II darajali kapitalni hisoblashda regulyativ korrekcirovkalar.



Kapitalni hisoblashda regulyativ korrektirovkalar quyidagicha qo'llaniladi: regulyativ kapitalni hisoblashda quyidagi korrektirovkalar qo'llaniladi va ko'pgina hollarda ular regulyativ kapitalni hisoblashda chiqarib tashlanadi yoki qisman qo'shiladi: gudvill va boshqa nomoddiy mol-mulklar chegiriladi; kechiktirilgan soliq aktivlari (vaqtinchalik farqlardan tashqari) chegiriladi; pul oqimlarini hedjirlash zahirasi. Bunda kutilayotgan ijobiy miqdorlar ayriladi, salbiy miqdorlar esa qo'shiladi; kutilayotgan zararlar uchun mo'ljallangan zahiralarning kamayishi chegiriladi; savdoga oid sekyuritizatsiya operatsiyasidan foyda chegiriladi; haqiqiy qiymatdagi moliyaviy majburiyatlar bo'yicha bank o'zining kredit riskidagi o'zgarishlardan kumulyativ foyda va zararlar chegiriladi; shartlashilgan imtiyozli pensiya fondi aktiv va majburiyatlari. Bunda majburiyatlar qo'shiladi, aktivlar esa chegiriladi; o'z aksiyalariga investitsiyalar asosiy I darajali kapitalni hisoblashda chegiriladi. Xuddi shunday tartib qo'shimcha I darajali kapitalga va II darajali kapitalga qilingan investitsiyalarga nisbatan ham qo'llaniladi; bank, moliya va sug'urta tashkilotlaridagi o'zaro (qarama-qarshi) ulushlar chegiriladi; bank, moliya va sug'urta tashkilotlariga qilingan, ushbu tashkilotlar kapitalidagi oddiy aksiyalarining 10 foizidan oshmaydigan va regulyativ konsolidatsiya ko'lamidan tashqarida bo'lgan investitsiyalar; bank, moliya va sug'urta tashkilotlariga qilingan yirik miqdordagi investitsiyalar chegiriladi. Ammo oddiy aksiyalar qisman chegiriladi.

Quyidagi moddalar asosiy I darajali kapitalni hisoblashda (yuqorida sanab o'tilgan barcha chegirishlardan so'ng) qisman qo'shilishi mumkin: bank, moliya va sug'urta tashkilotlarining oddiy aksiyalariga qilingan yirik miqdordagi investitsiyalar; ipoteka kreditiga xizmat ko'rsatish huquqi; vaqtinchalik farqlardan (masalan, kredit zarari yuz berishidan) yuzaga kelgan kechiktirilgan soliq aktivlari.

Bazel II da 50 foizi I darajali kapital tarkibidan, qolgan 50 foizi esa II darajali kapital tarkibidan chegiriladigan (yo chiqarib tashlash yoki riskka tortishni tanlash mumkin bo'lgan) quyidagi moddalar 125,0 foizli riskka tortiladi: ma'lum bir sekyuritizatsiya risk xatarlari; PD/LGD yondashuvlari bo'yicha ma'lum bir marja risklari; yetkazishga-to'lov hamda to'lovga-to'lov bo'lmagan tranzaksiyalar bo'yicha to'lamaslik yoki yetkazish; tijorat tashkilotlariga yirik miqdordagi investitsiyalar.

Bazel qo'mitasi o'zining 2010-yilning dekabr oyida chiqargan "Likvidlilik riskini baholash, uning standarti va monitoringgi xalqaro yondashuvlar" nomli hujjatida likvidlilik talabini ikkiga ajratadi. Ularning biri bir oylik, ya'ni qisqa muddatli davrda ssenariy stress-testga bardosh bera olish imkoniyatini beruvchi joriy likvidlilik koeffitsiyenti (Liquidity Coverage Ratio – LCR) bo'lsa, ikkinchisi banklar uzoq muddatli davrda barqarorligini oshirish hamda banklar faoliyatini doimiy ravishda barqaror manbalar bilan moliyalashtirishni rag'batlantirish maqsadida ishlab chiqilgan sof barqaror moliyalashtirish ko'rsatkichi (Net Stable Funding Ratio – NSFR) hisoblanadi.

Joriy likvidlilikni hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi:

$$\begin{array}{l} \text{Joriy likvidlik} \\ \text{koeffitsiyenti} \\ \text{(LCR)} \end{array} = \frac{\text{Yuqori darajadagi likvid} \\ \text{aktivlar}}{\text{kun mobaynida sof pul} \\ \text{chiqimlari}} \geq \frac{100}{\%}$$

Yuqori darajadagi likvid aktivlarning fundamental xususiyatlari: kredit va bozor riski past; baholash oson va aniq; riskli aktivlar bilan o'zaro bog'liqlikning kamligi; rivojlangan va tan olingan birjalar listingiga kiritilgan.

Yuqori darajadagi likvid aktivlarning bozor bilan bog'liq xususiyatlari: faol hamda yirik bozorga ega; market-meykerlarning borligi; bozor konsentratsiyasining pastligi, ya'ni sotuvchi hamda sotib oluvchilarning turlicha guruhlanishi; sifat uchun kurash.

Yuqori darajadagi likvid aktivlarga yuqoridagi xususiyatlarni hisobga olsak, quyidagilar kiradi: naqd pullar; Markaziy bankdagi rezervlar, ularni iqtisodiy nochor davrda olish imkoniyati bo'lishi lozim.

Hukumat, Markaziy bank, markazlashmagan davlat tashkilotlari, Xalqaro hisob-kitoblar banki, Xalqaro valyuta fondi, Yevropa Komissiyasi yoki ko'p tomonlama taraqqiyot banklariga bo'lgan talablar yoki ular tomonidan kafolatlangan talablarni ifoda etuvchi likvid-bozorbop qimmatli qog'ozlar, shuningdek ushbu qimmatli qog'ozlar quyidagi xususiyatlarga javob berishi lozim: Bazel II ning standartlashgan yondashuviga asosan 0 foizli riskka tortilishi; ushbu qimmatli qog'ozlar uchun REPO bozorining nisbatan kengligi; ushbu qimmatli qog'ozlar boshqa moliyaviy tashkilotlar yoki banklar tomonidan chiqarilmagan bo'lishi lozim. Bank joylashgan yoki likvidlilik riski hisoblanayotgan mamlakatda o'sha mamlakatning milliy valyutasida hukumat yoki Markaziy bank tomonidan chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlar.

"30 kun mobaynida sof pul chiqimlari" bu kutilayotgan kumulyativ pul chiqimlaridan kutilayotgan kumulyativ pul kirimini ayirish orqali topiladi. Bunda har bir pul chiqimi ma'lum bir chiqib ketish koeffitsiyentini majburiyatga ko'paytirish orqali aniqlanadi. Pul kirimi stress-ssenariysi davrida kirib kelishi mumkin bo'lgan yoki olinadigan pul oqimlarining yig'indisiga kirib kelish koeffitsiyentini qo'llash orqali hisoblanadi.

Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyentini joriy qilishdan maqsad investitsion banklarning innovatsiyalari, balansdan tashqari moddalar riskliligi hamda boshqa aktivlar va faoliyatlar ularning likvidlilik riski profillaridan kelib chiqib, eng kam miqdorda ularni zarur bo'lgan barqaror manbalar bilan moliyalashtirishdir.

Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi (1-jadval):



$$\begin{array}{lcl} \text{Sof barqaror} & & \text{Mavjud barqaror manbalar} & > \\ \text{moliyalashtirish} & = & & 100 \\ \text{koeffitsiyenti (NSFR)} & & \text{Zarur barqaror manbalar} & \% \end{array}$$

**1-jadval****Mavjud barqaror manbalar va ularning koeffitsiyentlari<sup>1</sup>**

| Modda   | Koeffitsiyent |
|---|---------------|
| I va II darajali kapital  | 100%          |
| II darajali kapitaldan oshgan, ruxsat etilgan, amaldagi so'ndirish muddati bir yil yoki undan ko'p bo'lgan boshqa imtiyozli aksiyalar va kapital instrumentlari |               |
| amaldagi so'ndirish muddati bir yil yoki undan ko'p bo'lgan boshqa majburiyatlar  |               |
| jismoniy shaxslar va kichik biznes sub'ektlarining barqaror depozitlari (so'ndirish muddati bo'lmagan yoki so'ndirish muddati bir yildan kam)                   | 85%           |
| jismoniy shaxslar va kichik biznes sub'ektlarining nisbatan barqaror depozitlari (so'ndirish muddati bo'lmagan yoki so'ndirish muddati bir yildan kam)          | 70%           |
| nomoliyaviy korporatsiyalarning depozitlari (so'ndirish muddati (bo'lmagan yoki so'ndirish muddati bir yildan kam)  | 50%           |
| yuqorida ko'rsatilmagan boshqa majburiyat va kapital  | 0%            |

Barqaror manbalar miqdori nazorat organlari tomonidan nazorat tahlilini qo'llash orqali bankning aktivlari, balansdan tashqari risklari va boshqa tanlangan faoliyat turlarining likvidlik riski profillaridan kelib chiqib aniqlanadi. Mavjud barqaror manbalar miqdorini aniqlash uchun ularni tegishli "mavjud barqaror manbalar koeffitsiyenti"ga ko'paytirish lozim. Olingan natijalarning jami yig'indisi esa jami mavjud barqaror manbalar miqdorini beradi.

Ushbu standart mohiyatiga to'liq amal qilish maqsadida, Markaziy banklarga moliyalashtirish manbasi sifatida qaralmasligi uchun, Markaziy bankdan olingan, muddati uzaytirilgan, doimiy ochiq bozor operatsiyalaridan tashqarida bo'lgan kreditlar ushbu koeffitsiyentni hisoblashda e'tiborga olinmaydi. Talab qilingan barqaror manbalar miqdorini hisoblash uchun bankda mavjud va bank tomonidan moliyalashtiriladigan aktivlar yig'indisini har bir aktiv turidan kelib chiqib tegishli "talab qilingan barqaror manbalar koeffitsiyenti"ga ko'paytirish kerak. Yakunda jami miqdorlar yig'indisi hisoblanadi (2-jadval).

**2-jadval****Zarur barqaror manbalar va ularning koeffitsiyentlari<sup>2</sup>**

| Modda  | Koeffitsiyent |
|--|---------------|
| naqd pullar  | 0%            |
| qisqa muddatli ta'minlanmagan faol savdo qilinadigan instrumentlar (<1 yil)  |               |
| teskari REPO bilan aniq kompensatsiyalangan qimmatli-qog'ozlar   |               |
| qolgan so'ndirish muddati (< 1 yil) bo'lgan qimmatli-qog'ozlar   |               |
| moliya tashkilotlariga berilgan, yangilanmaydigan, qolgan so'ndirish muddati bir yilgacha bo'lgan kreditlar  |               |
| hukumat, markaziy bank, markazlashmagan davlat tashkilotlari, Xalqaro hisob-kitoblar banki, Xalqaro valyuta fondi, Yevropa Komissiyasi, ko'p tomonlama taraqqiyot banklari chiqargan yoki ular tomonidan kafolatlangan qarz majburiyatlari | 5%            |
| qarzlardan holi nomoliyaviy ta'minlanmagan korporativ obligatsiyalar, eng kamida AA reytingi, so'ndirish muddati $\geq$ 1 yil  | 20%           |

1 Manba: muallif ishlanmasi

2 Manba: muallif ishlanmasi



|  |                              |
|--|------------------------------|
| qarzlardan holi, listingga kiritilgan ulush qimmatli-qog'ozlari yoki nomoliyaviy ta'minlanmagan korporativ obligatsiyalar (yoki obligatsiyalar), eng kamida A- reytingi, so'ndirish muddati $\geq 1$ yil | 50%                          |
| oltin  |                              |
| nomoliyaviy korporativ mijozlarga berilgan kreditlar, $< 1$ yil  | 80%                          |
| so'ndirish muddati $< 1$ yil bo'lgan, j/sh.larga berilgan kreditlar  |                              |
| boshqa barcha aktivlar   | 100%                         |
| <b>Balansdan tashqari moddalar</b>   |                              |
| amaldagi kreditning va likvidlik manbalarining olinmagan qismi   | 10%                          |
| boshqa ko'zda tutilmagan majburiyatlar   | nazorat organlari belgilaydi |

Zarur barqaror manbalar va ularning koeffitsiyentlari bank balansidagi aktivlar va majburiyatlarning likvidlik hamda barqarorlik darajasini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jadvalda keltirilgan koeffitsiyentlar aktivlarning qanchalik tez va yo'qotishsiz pulga aylantirilishi mumkinligini aks ettiradi. Naqd pullar va yuqori likvid davlat qimmatli qog'ozlari eng past barqarorlik talabi bilan tavsiflanib, bank likvidligini darhol qo'llab-quvvatlaydi. Aksincha, nomoliyaviy korporativ mijozlarga berilgan kreditlar, jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar hamda boshqa barcha aktivlar yuqori koeffitsiyentlarga ega bo'lib, ular bankdan barqaror va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini talab etadi. Balansdan tashqari majburiyatlar bo'yicha belgilangan koeffitsiyentlar esa kutilmagan likvidlik ehtiyojlarini inobatga olishga xizmat qiladi. Umuman olganda, mazkur yondashuv banklarning likvidlik riskini samarali boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi.

Tadqiqot respublikada faoliyat yuritayotgan 20 ta tijorat banklarini qamrab olgan bo'lib, ularning 20 tasi filiallar soni va faoliyat ko'lamiga ko'ra yirik moliya institutlari toifasiga kiritilgan. Indeks 27 turdagi koeffitsiyentlarni guruhlashtirish, respublika o'rtacha koeffitsiyenti yoki Bazel qo'mita talablari bilan solishtirish va reytinglash asosida aniqlanadi. Mazkur reyting moliya tizimida shaffoflikni oshirish va unga bo'lgan ishonchni mustahkamlashda muhim instrument hisoblanadi. Qo'llanilayotgan yondashuv xalqaro amaliyotga to'liq mos bo'lib, yetakchi xalqaro moliya institutlari tomonidan keng foydalaniladi (3-jadval).

3-jadval  
2025-yil bo'yicha yirik banklarning faollik reytingi<sup>3</sup>

| №  | Bank                          | Umumiy reyting | Reyting o'zgarishi | Moliyaviy vositachilik bo'yicha reyting | Moliyaviy ommaboplik bo'yicha reyting | Kapital yetarliligi bo'yicha reyting | Aktivlar sifati bo'yicha reyting | Boshqaruv samaradorligi bo'yicha reyting | Daromad olish salohiyati bo'yicha reyting | Likvidlik bo'yicha reyting |
|----|-------------------------------|----------------|--------------------|---|---------------------------------------|--------------------------------------|----------------------------------|--|---|----------------------------|
| 1  | Kapital bank                  | 1              | 0                  | 3                                       | 1                                     | 13                                   | 12                               | 5  | 4   | 5                          |
| 2  | Trast bank                    | 2              | 0                  | 5                                       | 10                                    | 2                                    | 10                               | 7  | 3   | 2                          |
| 3  | Hamkor bank                   | 3              | 0                  | 8                                       | 2                                     | 9                                    | 3                                | 6  | 2   | 8                          |
| 4  | Osiyo Alyans bank             | 4              | 0                  | 4                                       | 18                                    | 18                                   | 1                                | 4  | 1   | 1                          |
| 5  | Ipak yo'li banki              | 5              | 0                  | 15                                      | 3                                     | 11                                   | 2                                | 9  | 6   | 3                          |
| 6  | Anor bank                     | 6              | 0                  | 2                                       | 6                                     | 20                                   | 11                               | 13                                       | 10  | 11                         |
| 7  | Davr bank                     | 7              | 1                  | 9                                       | 12                                    | 15                                   | 6                                | 8  | 8   | 15                         |
| 8  | Orient Finans bank            | 8              | 1                  | 13                                      | 19                                    | 3                                    | 4                                | 3  | 5   | 9                          |
| 9  | Xalq banki                    | 9              | 1                  | 7                                       | 11                                    | 1                                    | 18                               | 12                                       | 9   | 7                          |
| 10 | Ipoteka bank                  | 10             | 1                  | 10                                      | 9                                     | 5                                    | 19                               | 14                                       | 7   | 4                          |
| 11 | Invest Finans bank            | 11             | -4                 | 1                                       | 16                                    | 16                                   | 5                                | 16                                       | 14  | 14                         |
| 12 | O'zsanooatqurilishbank        | 12             | 3                  | 17                                      | 13                                    | 8                                    | 15                               | 2  | 13  | 10                         |
| 13 | Biznesni rivojlantirish banki | 13             | 0                  | 18                                      | 4                                     | 10                                   | 17                               | 10                                       | 15  | 16                         |
| 14 | O'zmilliybank                 | 14             | 0                  | 20                                      | 17                                    | 6                                    | 20                               | 1  | 12  | 12                         |
| 15 | Aloqa bank                    | 15             | -3                 | 6                                       | 8                                     | 17                                   | 8                                | 17                                       | 18  | 13                         |
| 16 | Tenge bank                    | 16             | 0                  | 11                                      | 20                                    | 4                                    | 7                                | 18                                       | 11  | 6                          |

|    |                  |    |   |    |    |    |    |    |    |    |
|----|------------------|----|---|----|----|----|----|----|----|----|
| 17 | Mikrokredit bank | 17 | 0 | 16 | 7  | 7  | 13 | 20 | 16 | 18 |
| 18 | Agrobank         | 18 | 0 | 12 | 5  | 12 | 14 | 15 | 20 | 20 |
| 19 | Asaka bank       | 19 | 0 | 14 | 15 | 14 | 16 | 11 | 19 | 17 |
| 20 | Turon bank       | 20 | 0 | 19 | 14 | 19 | 9  | 19 | 17 | 19 |


Hisobot davrida bank tizimining jami aktivlari 892,9 trln soʻmni (74,2 mlrd dollar), majburiyatlari esa 759,8 trln soʻmni (63,1 mlrd dollar) tashkil etdi. Kredit qoʻyilmalari 13%ga oshgan boʻlsa, jalb qilingan depozitlar 31%ni tashkil etdi. Valyuta operatsiyalari ulushining pasayishi milliy valyutaning mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Sof foyda 13,5 trln soʻmga (1,1 mlrd dollar) yetdi va bu oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 57,1%ga koʻp. Shu bilan birga, muammoli kreditlar ulushi oʻtgan yildagi 4,3%dan 3,5%gacha kamaydi, bu kredit portfeli sifatining yaxshilanayotganini koʻrsatadi. Ayrim banklarda mazkur koʻrsatkich oʻrtacha darajadan yuqori boʻlib qolmoqda. Kapital monandlik koʻrsatkichlari minimal talablardan 1,4 barobar yuqori boʻlib, bank tizimining barqarorligini tasdiqlaydi.

Eng sezilarli oʻsishni Oʻzsanoatqurilishbank koʻrsatib, umumiy reytingda 3 pogʻonaga koʻtarildi. Shuningdek, Davr bank, Orient Finans bank, Xalq banki hamda Ipoteka bank oʻz pozitsiyalarini yaxshilab, ijobiy dinamika namoyon etdi. Ayni paytda yirik banklar toifasida faqat ikki bankda faollikning pasayishi qayd etildi. Xususan, Invest Finans bank va Aloqa bank umumiy reytingda mos ravishda 4 va 3 pogʻonaga pastladi. Umuman olganda, 13 ta bank umumiy faollik reytingida oʻz pozitsiyalarini saqlab qolgan boʻlib, raqobat kuchayib borayotgan sharoitda mazkur holat banklarning operatsion samaradorlikni, likvidlikning yetarli darajasini, aktivlar sifatini va barqarorlikni taʼminlash salohiyatini aks ettiradi.

Moliyaviy vositachilik yoʻnalishida Tenge bank va Ipak yoʻli bank resurslarni jalb qilish va joylashtirish samaradorligi boʻyicha mos ravishda 4 va 3 pogʻonaga pasayishni qayd etdi. Shuningdek, ushbu toifada Oʻzmilliy bank, Aziya Alyans bank, Anor bank, Biznesni rivojlantirish banki hamda Mikrokreditbank bir pogʻonaga pastladi. Moliyaviy ommaboplik koʻrsatkichlari boʻyicha Orient Finans bank, Xalq banki, Agrobank, Biznesni rivojlantirish banki va Ipoteka bankda 1 pogʻonalik pasayish kuzatildi. Aktivlar sifati boʻyicha reytingda yirik banklarning oltitasida pasayish qayd etildi. Xususan, Agrobank 3 pogʻonaga, Oʻzmilliy bank, Trast bank, Anor bank, Aloqa bank va Asaka bank esa 2 pogʻonadan pastladi.

Butun bank sektori boʻyicha foyda koʻrsatkichlarida umumiy ijobiy dinamika saqlanib qolgan boʻlsa-da, daromad olish salohiyati boʻyicha Milliy bank va Anor bankda mos ravishda 2 va 1 pogʻonalik pasayish kuzatildi. Boshqaruv samaradorligi koʻrsatkichlari boʻyicha Mikrokreditbank va Anor bank zaif natijalarni qayd etib, 2 pogʻonadan pastladi. Likvidlik koʻrsatkichlari boʻyicha mamlakatdagi yirik banklarning qariyb uchdan bir qismi oʻz pozitsiyalarini yoʻqotgan. Eng katta pasayish Davr bankda qayd etilib, u 6 pogʻonaga pastladi, Agrobank esa ushbu indikator boʻyicha soʻnggi oʻringa tushib qoldi.

Mazkur jadvalda 2019–2025-yillar davomida uzoq muddatli kreditlar hajmi hamda ularning jami kredit portfelidagi ulushi dinamikasi aks ettirilgan. Uzoq muddatli kreditlar iqtisodiyotda investitsion faollikni ragʻbatlantiruvchi muhim moliyaviy manba boʻlib, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, infratuzilmani rivojlantirish va tadbirkorlik subyektlarini qoʻllab-quvvatlashda muhim oʻrin tutadi. Shu bois, ularning hajmi va ulushidagi oʻzgarishlar moliya bozorining tarkibiy transformatsiyasi hamda bank kredit siyosatidagi ustuvor yoʻnalishlarni baholash imkonini beradi. Ushbu koʻrsatkichlarning tahlili iqtisodiy oʻsish omillarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).



1-rasm. Uzoq muddatli kreditlar hajmi hamda jami kreditlardagi ulushi, foizda<sup>4</sup>

Tahlil natijalariga koʻra, uzoq muddatli kreditlar hajmi 2019-yildagi 25 972,7 mlrd soʻmdan 2025-yilda 50 266,0 mlrd soʻmga yetib, deyarli ikki baravar oshgan. Bu oʻsish bank tizimida investitsion kreditlash hajmining kengayganidan

4 Manba: muallif ishlanmasi



dalolat beradi. Biroq, ularning jami kreditlardagi ulushi 88,2 foizdan 77,4 foizgacha pasaygan, ya'ni qisqa muddatli kreditlash ulushi nisbatan tezroq o'sgan. Ayniqsa, 2022–2024-yillarda ulushning keskin kamayishi iqtisodiyotda likvidlik ehtiyojlarining ortgani va aylanma mablag'larni moliyalashtirishga talab kuchayganini ko'rsatadi. 2025-yilda esa ulushning biroz tiklanishi kuzatilgan.

Umuman olganda, uzoq muddatli kreditlar hajmining barqaror o'sishi iqtisodiyotda investitsion muhitning saqlanib qolayotganini bildiradi. Shu bilan birga, ularning umumiy kredit portfelidagi ulushining kamayishi banklar faoliyatida qisqa muddatli kreditlash ustuvorligi kuchayganini anglatadi. Bu holat bir tomondan iqtisodiyotning operativ ehtiyojlariga moslashuvni ko'rsatsa, ikkinchi tomondan uzoq muddatli investitsiyalarni moliyalashtirish salohiyatining nisbatan cheklanishi xavfni yuzaga keltiradi. Kelgusida muvozanatli kredit siyosatini yuritish, ayniqsa uzoq muddatli loyihalarni qo'llab-quvvatlashni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarining investitsion faolligining joriy holati va uning o'zgarish tendensiyalari tahlili shuni ko'rsatadiki, bank tizimi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda tijorat banklari tomonidan investitsiya faoliyatiga e'tibor kuchayib, moliyaviy resurslarni samarali yo'naltirish, real sektorni qo'llab-quvvatlash va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish hajmi ortib bormoqda. Tahlillar shuni anglatadiki, investitsion faollikning o'sishiga banklarning kapital bazasi mustahkamlanishi, moliyaviy instrumentlar xilma-xilligining kengayishi hamda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi asosiy omil bo'lmoqda. Shu bilan birga, global moliyaviy beqarorlik, inflyatsiya darajasi va foiz stavkalarining o'zgaruvchanligi banklarning investitsion qarorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, tijorat banklarining investitsion faoliyatida diversifikatsiya darajasini oshirish, uzoq muddatli moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish va xalqaro tajribani keng joriy etish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining investitsion faolligi dinamik rivojlanib borayotgan jarayon bo'lib, uni yanada oshirish uchun kompleks yondashuv, zamonaviy boshqaruv usullari va innovatsion yechimlarni qo'llash zarur. Bu esa bank tizimining barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Батищева, Г.А. Исследование влияния инвестиций на основные компоненты развития экономики/ Г.А. Батищева // Финансовая аналитика. 2009. №2. С.12-14
2. Биккулов Г. Р. Инвестиционные стратегии банка на рынке ценных бумаг: содержание и роль / В. Н. Едророва, Г. Р. Биккулов // Финансы и кредит. 2008. - №32. - С. 30-34.
3. Буджи, С. Банки развивающихся стран Европы привлекают инвесторов/ С. Буджи // Рынок ценных бумаг— 2000—№20— С. 60-67.
4. Бузаева, О.А. Управление инвестиционной деятельностью коммерческих банков: основные направления [Текст] / О. А. Бузаева // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – N 18. – С. 1–7.
5. Буркова А.Ю. Отличия инвестиционного банкинга от коммерческого и розничного // Управление корпоративными финансами. - 2010. - № 4.
6. Гиблова Н.М. Коммерческие банки как основные участники модернизационных процессов отечественной экономики / Н.М. Гиблова // Банковское дело. - 2012. - № 11. - С.40-43.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 2**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)